

SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-may*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 66-235-65-80*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



2024-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **12 052** ta bo'lib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **38** ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar **12 014** tani tashkil etmoqda.

Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11 630,5** mlrd. so'mni, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **106,8** % ni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 706,2** mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9 924,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,7** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 157,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,1** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	11 630,5	106,8
Samarqand sh.	4 216,9	106,6
Kattaqo'rg'on sh.	471,0	106,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	273,3	105,6
Bulung'ur	736,3	109,2
Jomboy	392,4	105,1
Ishtixon	439,8	108,2
Kattaqo'rg'on	431,4	103,6
Qo'shrabot	227,7	106,9
Narpay	582,8	106,8
Payariq	356,0	108,2
Pastdarg'om	387,6	104,4
Paxtachi	212,7	110,0
Samarqand	1 267,3	105,1
Nurobod	169,4	104,6
Urgut	1 137,0	108,7
Toyloq	328,9	109,7


2024-yilning yanvar-may oylarida 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning Paxtachi (**110,0** %), Toyloq (**109,7** %), Bulung'ur (**109,2** %), Urgut (**108,7** %), Ishtixon (**108,2** %), Payariq (**108,2** %), Narpay (**106,8** %) tumanlari va Samarqand shahrida (**106,6** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-may)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **109,0 %** ni tashkil qildi.

2023-2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish
sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-may oylarida o'sish sur'ati **106,8 %** ni tashkil qildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush **Samarqand shahrida 36,3 %** bilan **4 216,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, **Nurobod tumani 1,5 %** bilan **169,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'm
Samarqand sh.	4 216,9
Samarqand	1 267,3
Urgut	1 137,0
Bulung'ur	736,3
Narpay	582,8
Kattaqo'rg'on sh.	471,0
Ishtixon	439,8
Kattaqo'rg'on	431,4
Jomboy	392,4
Pastdarg'om	387,6
Payariq	356,0
Toyloq	328,9
Oqdaryo	273,3
Qo'shrabot	227,7
Paxtachi	212,7
Nurobod	169,4

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlari (foizda) (2024-yil yanvar-may)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-may oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 924,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,7** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **85,3** % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **81,8** % ni yoki **1 706,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **14,7** % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda),
(2024-yil yanvar-may)**



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Narpay (99,5 %), Ishtixon (99,3 %), Jomboy (99,2 %), Oqdaryo (99,1 %) va Payariq (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (28,6 %) va Samarqand (31,0 %), Kattaqo'rg'on (6,0 %), Pastdarg'om (4,1 %) tumanlarida kuzatildi.

14,7 %

85,3 %





 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda
(2024-yil yanvar-may)



2024-yilning yanvar-may oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 757,4** ming so'mni (2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **104,5 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**7 190,0** ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**4 957,9** ming so'm) va Samarqand (**4 633,6** ming so'm), Bulung'ur (**3 635,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunda dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-may), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	1 157,9	109,1	439,4	102,1	718,5	113,8
Samarqand sh.	106,9	118,3	79,7	93,6	27,2	5,3 m.
Kattaqo'rg'on sh.	147,2	98,6	48,1	66,3	99,0	129,2
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	68,4	102,7	3,6	66,2	64,8	106,0
Bulung'ur	103,5	113,4	38,8	162,4	64,7	96,0
Jomboy	82,9	111,2	43,5	111,3	39,4	111,1
Ishtixon	84,9	109,5	46,4	135,3	38,5	89,0
Kattaqo'rg'on	81,5	113,1	38,9	179,8	42,7	84,6
Qo'shrabot	41,2	104,8	6,4	44,8	34,8	138,8
Narpay	47,5	91,1	23,4	3,0 m.	24,1	54,5
Payariq	86,7	109,2	23,0	72,6	63,7	133,5
Pastdarg'om	43,3	110,4	3,1	102,7	40,2	111,1
Paxtachi	49,5	117,2	19,7	121,4	29,8	114,5
Samarqand	44,4	135,6	6,8	2,3 m.	37,7	126,4
Nurobod	43,8	104,0	6,6	42,7	37,2	139,8
Urgut	64,1	102,2	34,0	93,3	30,2	114,7
Toyloq	62,1	124,4	17,4	87,0	44,7	149,4


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2024-yil yanvar-may)














Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024-yil yanvar-may)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi **1 157,9** mlrd. so'mni, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **109,1** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **439,4** mlrd. so'mni (**102,1** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **718,5** mlrd. so'mni (**113,8** %) tashkil etdi.













2024-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **439,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**180,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi (2024-yil yanvar-may)

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>180,3 mlrd. so'm</p>  <p>41,0 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>35,5 mlrd. so'm</p>  <p>8,1 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>55,6 mlrd. so'm</p>  <p>12,7 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>33,9 mlrd. so'm</p>  <p>7,7 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>44,7 mlrd. so'm</p>  <p>10,2 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>20,2 mlrd. so'm</p>  <p>4,6 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>19,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,5 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>16,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,8 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>11,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>14,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>7,0 mlrd. so'm</p>  <p>1,6 %</p>	

2024-yilning yanvar-may oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **718,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **585,5** mlrd. so'm, qo'y va echkilar **97,3** mlrd. so'mni, otlar **31,9** mlrd. so'mni, parrandalar **3,8** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>307,6 mlrd. so'm</p>  <p>42,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>176,1 mlrd. so'm</p>  <p>24,5 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>101,8 mlrd. so'm</p>  <p>14,2 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>74,1 mlrd. so'm</p>  <p>10,3 %</p>	<p>Otlar</p> <p>31,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,4 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>23,2 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>2,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,043 mlrd. so'm</p>  <p>0,006 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,041 mlrd. so'm</p>  <p>0,006 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-may)

2024-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 894** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **9** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 885** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	452,6	102,8
Samarqand sh.	298,7	98,4
Kattaqo'rg'on sh.	10,8	112,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	3,4	116,6
Bulung'ur	11,4	111,1
Jomboy	11,8	117,9
Ishtixon	3,3	115,8
Kattaqo'rg'on	6,0	112,0
Qo'shrabot	5,3	114,7
Narpay	6,0	113,5
Payariq	4,6	112,6
Pastdarg'om	35,6	111,9
Paxtachi	5,2	109,9
Samarqand	20,4	110,2
Nurobod	5,6	116,1
Urgut	10,5	108,3
Toyloq	14,0	114,5

2024-yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **452,6** mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **2,8 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **83,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot (2024-yil yanvar-may)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	1 204,1	100,0
Samarqand sh.	864,0	71,7
Kattaqo'rg'on sh.	5,7	0,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	5,1	0,4
Bulung'ur	3,2	0,3
Jomboy	0,8	0,1
Ishtixon	4,4	0,4
Kattaqo'rg'on	8,0	0,6
Qo'shrabot	0,2	0,02
Narpay	4,1	0,3
Payariq	1,1	0,1
Pastdarg'om	0,2	0,02
Paxtachi	2,3	0,2
Samarqand	87,7	7,3
Nurobod	13,5	1,1
Urgut	0,7	0,1
Toyloq	203,2	16,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**864,0** mlrd. so'm), Toyloq (**203,2** mlrd. so'm) va Samarqand (**87,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi, (mlrd. so'm) (2024-yil yanvar-may)




2024-yilning yanvar-may oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **1 204,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **37,0 %** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **307,6** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **2,1 m.**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **896,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **122,8 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **7 002,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **24,8 %** ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi

52,2 %

3 654,7 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

47,8 %

3 347,6 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3 347,6** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **100,1 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **47,8 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK HAMDA KICHIK BIZNES KORXONALARINING SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

(2024-yil yanvar-may)

2024-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **3 187** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **30** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 157** tani tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nurobod (**198,3 m.**), Toyloq (**2,4 m.**), Samarqand (**2,1 m.**), Samarqand sh. (**159,0 %**) va Pastdarg'om (**135,6 %**) hududlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – may oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	7 002,3	124,8	3 654,7	161,2	3 347,6	100,1
Samarqand sh.	4 968,3	130,0	2 966,9	159,0	2 001,4	102,3
Kattaqo'rg'on sh.	106,1	96,6	0,1	56,9	106,0	96,7
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	158,4	105,4	-	-	158,4	105,4
Bulung'ur	186,4	127,1	163,7	133,4	22,7	94,9
Jomboy	80,5	90,5	0,021	0,2	80,5	107,2
Ishtixon	41,1	99,3	-	-	41,1	99,3
Kattaqo'rg'on	115,4	97,9	-	-	115,4	97,9
Qo'shrabot	12,5	98,5	0,02	20,6	12,5	99,1
Narpay	49,5	89,5	0,168	63,2	49,4	89,6
Payariq	36,9	100,8	-	-	36,9	100,8
Pastdarg'om	277,1	111,5	115,3	135,6	161,8	99,0
Paxtachi	4,9	85,0	0,032	15,5	4,8	87,7
Samarqand	636,4	133,1	258,1	2,1 m.	378,3	106,6
Nurobod	25,7	166,8	14,3	198,3 m.	11,4	74,6
Urgut	163,5	91,6	-	-	163,5	91,6
Toyloq	139,6	134,6	136,1	2,4 m.	3,5	7,3